

DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI TRANSFORMATSIYA QILISH UCHUN TOP MENEJERLARNI JALB QILISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14261892>

Sharipova Gulchehra Solijonovna

Ozberiston Respublikasi Sogliqni Saqlash Vazirligi

Teri – tanosil kasalliklari klinikasi, laboratoriyasi shifokori

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi

Biznes va Tadbirkorlik Oliy maktabi 4-guruh tinglovchisi

Annotatsiya

Bugungi kunda yuksak boshqaruv usullarini qo'llagan holda muhim ustuvor yo'nalishlarimiz chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, jadal va mutanosib rivojlanishni ta'minlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, investitsiyaviy ishchanlik muhitini shakllantirish va chuqurlashtirish, yuksak tehnologilar asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqargan holda eksport salohiyatimizni yanada mustahkamlashdan iborat.

Kalit so'zlar

Boshqaruv, raqobatbardosh, sarmoya, obyekt-subyekt, ABT.

KIRISH

Boshqaruv ishlab chiqarishning barcha qatnashchilari va elementlari o'rtasida kelishuvni yo'lga qo'yilib, yuzaga kelgan munosabatlarning mazmuni va me'yorini tartibga soladi hamda resurslardan foydalanishning samarali yo'llarini topishga o'z hissasini qo'shadi. Boshqaruv – ijtimoiy mehnat jarayoniga ishlab chiqarish rivojlanishining obyektiv qonunlari asosida yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazish tizimi, har bir ishchining va butun jamoaning mehnatini bir vaqtning o'zida nazorat qilish, motivatsiya va tartibga solish usulidir. Korxonaning samaradorligi ko'p jihatdan boshqarish tizimini mukammalligi bilan uzviy bog'liqdir. Korxona mulk va sarmoya egalari tomonidan yoki maxsus tanlab olingan va kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassis menejerlar tarafidan boshqariladi. Korxonani boshqarishda samaradorlikka erishish uchun avvalo, boshqaruvning madsadlari, shuningdek, vositalari va unga erishish usullarini aniq belgilab olish zarur. Yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni eng kam xarajatlar asosida ishlab chiqarish eng ko'p daromad olishni ta'minlab,

inqirozga uchrashdan saqlaydi hamda har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Boshqaruvning barcha vazifalari ushbu maqsad amalga oshishiga xizmat qilishi lozim. Boshqaruv shakli va usullarini takomillashtirib borish. Kuchli raqobat sharoitida korxona sinmasligi uchun menejerlar doimo o'z ustilarida tinmay ishlab, boshqaruv usullarini takomillashtirib borishlari va bozordagi o'zgarishlarga moslashishlari lozim.

Beshinchidan, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullari joriy etiladi hamda davlat ishtirokidagi korxonalarda davlat ishtirokining maxsus huquqi ("Oltin aksiya") bekor qilinadi.

Oltinchidan, boshqaruv organlari faoliyati va davlat ishtirokidagi korxonalar nazorati korporativ boshqaruv amaliyotiga muvofiq tashkil etiladi.

- Korporativ boshqaruv prinsiplari qanday joriy etiladi?

- Keyingi yildan boshlab Kuzatuv kengashlariga nomzodlarni tanlov asosida saylash amaliyotga joriy etiladi. Bundan tashqari, Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolarining ulushi 2025-yilga kelib 30%gacha bo'lgan miqdorga yetkaziladi.

Shuningdek ijro etuvchi organ uch yilgacha vakolat muddati bilan tanlov asosida shakllantiriladi. Bunda Kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organ a'zolarining faoliyatini baholash korporativ boshqaruv ko'rsatkichlari hamda samaradorlik bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq bo'ladi.

- Strategiyani amalga oshirishdan qanday natijalar kutilmoqda?

- 2025-yilga qadar bosqichma-bosqich davlat korxonalari sonining 75%i qisqartiriladi. Moliya vazirligi bilan birgalikda 20 ta davlat korxonasining ("O'zmetkombinat" AJ, "AKMK" AJ, "O'zmilliybank" AJ, "O'zbekneftgaz" AJ, "Xalq banki" AK, "O'zagrosug'urta" AJ, "NKMK" AJ, "O'zavtosanoat" AJ va boshqalar) aksiyalari birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etish orqali sotish uchun joylashtirilishi ta'minlanadi.

Bundan tashqari, davlat korxonalarining boshqaruv organlariga 100 nafar xorijiy menejerlar jalb etiladi.

- Nimalarga erishildi va yaqin kunlarda davlat aktivlari qanday tartibda sotiladi?

- 2020-yil oktyabrda qabul qilingan Prezidentning "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan ilk marta transformatsiya qilinadigan davlat korxonalari ro'yxati belgilandi. Shuningdek davlat obyektlarini "nol" xarid qiymatida sotish amaliyoti bekor qilindi, xususiylashtirilishi lozim bo'lgan davlat korxonalari va ko'chmas mulk obyektlari ro'yxati tasdiqlandi.

Prezidentning joriy yil 11-fevraldagi Farmoni bilan xususiylashtirishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish boshlandi. Xususan, ushbu jarayonga professional tashkilotlar jalb etila boshlandi, boshlang'ich narx sifatida davlat aktivlarini baholash qiymatini majburiy tartibda belgilash talabi bekor qilindi. Bunda baholash qiymati sotish uchun mo'ljallanib olinadi.

Joriy yilning birinchi yarmi oxiriga kelib 550 tadan ortiq davlat aktivlari, shu jumladan "Poytakht" biznes markazi, "Ichan qal'a" mehmonxonasi, Toshkent shahridagi ma'muriy binosi kabi yirik mulkiy komplekslarning sotilishi rejalashtirilmoqda.

"Coca-Cola Ichimligi" kompaniyasida davlat ulushini sotishning yakuniy bosqichi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, yil oxiriga qadar "O'zagroeksportbank" va "Poytaxt bank", "Farg'ona NPZ", "Kvars", "Trest-12" korxonalari, "Kafolat" sug'urta kompaniyasi, vino-arq va yog'-moy korxonalaridagi davlat ulushini ham sotish rejalashtirilmoqda.

Davlat aktivlarining bozor qiymatini aniqlash uchun xalqaro miqyosda e'tirof etilgan baholovchi kompaniyalar (KPMG, Deloitte, PriceWaterhouseCoopers, Grant Thornton) jalb etilgan, ular baholash jarayonini amalga oshiradilar. Shuningdek xususiylashtirishdan oldin tayyorlash jarayoni xalqaro miqyosda e'tirof etilgan konsalting kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Korxona faoliyatini boshqarish jarayoniga tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatadi. Ichki omillarga korxonaning katta-kichikligi, resurslar miqdori va uni taqsimlanishi, texnologik darajasi, mehnatni tashkil etish usullari, baho siyosati va boshqalar kiradi. Tashqi omillar korxonadan tashqaridagi muhit ta'sirida vujudga keladi. Ular qatoriga bozor konyukturasi va raqobat muhiti, mol yetkazib beruvchi va istemolchilarning xatti-harakatlari, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar, siyosiy va ijtimoiy omillar, huquqiy-meyoriy baza va davlat boshqaruvi kabi omillar kiradi. Boshqaruvga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar korxonaning ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va boshqa faoliyati natijalariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi sababli, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda har bir omilni hisobga olish zarur. Korxonani boshqarishni o'ziga xos xususiyatlari uni boshqarayotgan funksiyalariga, iqtisodiyotdagi o'rniga, u faoliyat ko'rsatayotgan biznes muhitiga bog'liq. Korxona menejmenti uchun unda ishlovchi ishchilar soni katta ahamiyatga ega. Mulk egasining o'z biznesini boshqaruv darajasi va ishchilar bilan bo'ladigan aloqasi bu omilga bog'liq[1].

Korxonani bozor sharoitida muaffaqiyatli faoliyatini ta'minlash maqsadida boshqaruv tizimi - menejmentni marketing bilan bog'lashi muhim. Korxonani

boshqaruvi korxona rejasi bilan bog'liq bo'lib, korxonaning ishlab chiqarish muaffaqiyati va kutilayotgan foyda darajasiga erishishiga xizmat qiladi. Aynan

shunday bog'liqlik boshqaruvni tashkil qilishni nafaqat o'z iste'molchisi va bozoriga, balki barcha bozorlar va istemolchilarga hamda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan tadbirlarning maqsadga muvofiqligiga yo'naltirilgan mukammal tizim shaklida ifodalashga imkon beradi. Boshqaruvga yondashishdagi zamonaviy usullarning muhim ahamiyati inson omilini faollashtirish, o'z-o'zini boshqarish va tashabbuskorlikni rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi yangi tashkiliy tuzilmalarni yaratishda namoyon bo'ladi. Korxonada boshqaruvning ta'siri boshqaruv obyekti ga yo'naltirilgan bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish jarayonlari, ishlab chiqarish uskunalari ni ekspluatatsiya qilish, turli miqyosdagi mehnat kooperatsiyasi va hokozolar boshqaruv obyekti bolishi mumkin[2].

Boshqaruv sub'yekti esa qoidaga ko'ra, korxona rahbari yoki boshqaruv obyektlarini maqsadli ravishda boshqarishni amalga oshiruvchi xizmat rahbarlaridir. Boshqaruv subyekti ishlab chiqarish vositalarining ishchi kuchi bilan birlashuviga ko'maklashadi. Shu sababli, boshqaruv ob'yektlari va subyektlari orasidagi aloqa, jumladan ularning ichki tashkil qilinishi shunchalik mustahkam bo'lsa bir xil sharoitlarda ishlab chiqarish hamda boshqaruv tizimining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Korxonani boshqarishda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, boshqaruvning maqsadlari, shuningdek, vositalari va unga erishish usullarini aniq belgilab olish zarur. Yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlari eng kam xarajatlar asosida ishlab chiqarish eng ko'p daromad olishni ta'minlab inqirozga uchrashdan saqlaydi hamda har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Boshqaruvning barcha vazifalari ushbu maqsad amalga oshishga xizmat qilishi lozim. Masalan, hozirgi paytda korxonalarni boshqarishni takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ABT) yaratish va amaliyotga kiritish hamda ish vaqt yo'qotilishining oldini olish, uskunalrning bekor turib qolishini qiqartirish, mehnat va moddiy resusrlardan oqilona foydalanishga ko'maklashuvchi kompyuter texnikasidan foydalanishni ko'rsatish mumkin. Boshqaruv tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlardan biri - korxonaning funksional xizmatlari va bo'limlari faoliyatini ortiqcha tuzilmava iy bo'linmalarni tugatish, xizmat ko'rsatuvchi bo'limlarni optimallashtirish, birlamchi hisobga olish hamda hisob-kitob va boshqa boshqaruv amallarini soddalashtirish yo'li orqali muvofiqlashtirishdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonlar ishlab chiqarishni yangidan yangi kombinatsiyalarni yaratadi, o'z faoliyatiga turli xildagi yangi texnologiyalarni tatbiq etadi. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida korxonalarni yangi ko'rinishlari, ya'ni raqamli korxonalar, innovatsion tadbirkorlik, venchur tadbirkorligi kabilar rivojlanmoqda. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni, zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish iqtisodiyotning yangi bilimga yo'naltirilgan tarmoqlarini paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyotning innovatsion sektorini, shuningdek "raqamli tadbirkorlikni" shakllanishi va rivojlanishi ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini yaratadi¹.

Iqtisodiyotimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan oqilona iqtisodiy islohotlar natijasida bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga erishilmoqda. Jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida raqamli iqtisodiyotning asosiy turi bo'lgan raqamli texnologiyalarni samarali yo'lga qo'yish, ularda raqamli transformatsiya jarayonini amalga oshirishda bajarilishi lozim bo'lgan hatti-harakatlar ketma ketligiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Real sektor korxonalarini raqamlashtirish xususiyatlarini, raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'рни va ahamiyatini o'rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi².

Korxonaning raqamli transformatsiyasidan asosiy maqsad, bizningcha, uning raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni taominlashdan iborat. Raqamli transformatsiya vazifasining maqsadiga muvofiq korxonalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish;
- yuqori samaradorlikka, ishlab chiqarish va tashkiliy jarayonlarning moslashuviga erishish;
- korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish;
- korxonaning iqtisodiy samaradorligini kafolatlaydigan boshqaruv tizimining moslashuvchanligi va shaffofligini oshirish va boshqalar

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobat bardoshligini oshirishda raqamlashtirish jarayoni juda muhim hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayoni keltirishi mumkin bo'lgan foyda va zararlar riskini to'g'ri baholashdan so'ng ushbu


¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947- sonli farmoni

² Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi zamonaviy trendlar: tajriba, muammo va istiqbollar. // Ilmiyamaliy anjuman ma'ruza tezislari to'plami. 2020 yil 14 oktyabr. – Toshkent. 2020.

jarayonni joriy qilish rejasi tuziladi. Umumiy holatda raqamli korxona konsepsiyasi va strategiyasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi. Korxonaning raqamli transformatsiyasi bir necha bosqichlardan o'tadi (1-rasm).

Korxonaning joriy holatida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini baholash va aniq maqsadlarni belgilash. Belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ketma ketligini va strategiyasini tuzib chiqish. Ishlab chiqarishni raqamliga o'zgartirishni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish tizimlarining gorizontaal va vertikal integratsiyasi zarur va hozirda foydalanilayotgan axborot tizimlarining muhim qismi ma'lumot almashishi mumkin, ammo ularning muvofiqligi korxona ichida ham, o'zaro ta'sir qiluvchi korxonalar o'rtasida ham barcha darajalarda taaminlanishi kerak. Yagona axborot makonini yaratish korxonalarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari va sanoat uskunalari o'rtasida tezkor va o'z vaqtida axborot almashish imkoniyatini beradi.

Yaqin 10 yillikda ishlab chiqarish, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda "smart" aqlli texnologiyalarning qo'llanilishi hech kimga



sir emas albatta. So'nggi yillarda korxonalarning raqobat muhitida omon qolishiga imkon beradigan raqobatbardoshlikning ahamiyati keskin oshdi.

Keskin raqobat sharoitida zamonaviy korxonalar bozor holatiga tezda javob berishlari kerak. Buning uchun tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga o'z vaqtida javob berishga imkon beradigan va tashkilotning ichki jarayonlarini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtiradigan strategiyalarni ishlab chiqish kerak

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur. O'z miqyosiga

ko'ra raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi. Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqdagi mavjud korxonalarining texnika bilan ta'minlanish va mehnat unumdorligi darajalari turlicha bo'lganligi sababli, ushbu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi

Korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri bu mahsulotlarni yuqori sifatli qilib ishlab chiqarilishi hisoblanadi. Mahsulot sifatining oshishi o'z navbatida ishlab chiqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi, buning uchun albatta ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida bir maromda sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirib borishga to'g'ri keladi

Agar boshqaruvchi-menejerlar sifatga hayot tarzi sifatida qarashmasa, sifatni yaxshilashga bo'lgan harakatlarni amalga oshirish qiyin bo'ladi. Aynan shuning uchun mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha ishlar boshliqdan tortib ijrochigacha bo'lgan barcha personal-xodimlar uchun eng muhim faoliyat bo'lib hisoblanadi.

Raqamli korxona – bu axborot texnologiyalaridan o'z faoliyatining barcha sohalarida: ishlab chiqarish, biznes jarayonlari, marketing va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda raqobatdosh ustunlik sifatida foydalanadigan tashkilot. Bunda an'anaviy tarzda faoliyat yuritib kelayotgan tashkilotlar raqamli transformatsiya yo'lidan o'tib, "raqamli fikrlash" qobiliyatiga ega kompaniyaga aylanmoqda.

Bunday korxona tomonidan bozorga taklif etilayotgan mahsulotning o'zi ham "raqamlashtirilgan" bo'ladi. Shunga ko'ra, biznes va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tobora zarur bo'lib bormoqda. Hujjatlar oqimini kuzatish, me'yoriy texnik hujjatlarni boshqarish kabi jarayonlar korxonaning xususiyatlariga va u ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning hayotiy sikliga qarab korxonasi raqamlashtirish jarayonining bir qismiga aylanib boradi. Sifat menejmenti raqamli korxonaning ichki jarayonini o'rganganligi sababli, korxonaning raqobatdosh ustunliklaridan foydalanish sifat menejmenti tizimini raqamlashtirish jarayonini takomillashtirishning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyot qo'llanilishi natijasida korxonalar raqobatbardoshligini boshqarish mexanizmi korxona raqobatbardoshligini saqlab qoladi va iqtisodiy jihatdan samaradorlikni oshiradi, bundan tashqari zamonaviy, strategik, taktik, tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish orqali raqobatbardosh ustunlikka erishadi hamda raqobatbardoshlikni boshqarish modelini, korporativ strategiya vamaqsadlarni, tizimli yondashuvni va boshqaruv metodoloyiasini ishlab chiqadi.

Bugungi kunda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlarining o'sishi birinchi navbatda korxonalarda raqamli iqtisodiyotning to'g'ri tashkil etilishi hamda "raqamli tadbirkorlikni" doimiy ravishda takomillashtirib borilayotgani bilan bog'liqdir. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida Respublikamiz oldida turgan muhim vazifalardan biri jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni keng yo'lga qo'yishdir. Bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri tadbirkorlar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali, narxlarni pasaytirish va jahon bozorida raqobatbardosh, eksportbop sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Xalqaro tajribani o'rgangan holda monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yanada keng yo'l ochish, "raqamli tadbirkorlikni" rivojlantirish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim.

Iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida qator ustunliklarga ega bo'lib ular quyidagilarda o'z ifodasini topadi: korxonalar faoliyatini avtomatlashtirilishi va jarayonning to'liq raqamlashtirilishiga erishilishi natijasida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanish yo'lga qo'yiladi, korxonalar investitsion jozibadorligi va ishlab chiqarish jarayonining shaffofligi ta'minlanadi.

Sanoat korxonalarida raqamlashtirish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga egaligi, moliyaviy resurslar va shartli infratuzilmaga muhtojligi nuqtai nazaridan ehtimoliy yo'qotishlarga olib kelishi ham mumkinligi ayniqsa O'zbekistondek rivojlanayotgan mamlakatda faoliyatini olib boradigan korxonalarda ushbu jarayonni to'g'ri rejalashtirish, raqamli transformatsiyalash strategiyasini to'g'ri shakllantirish, ushbu jarayonni korxona holatiga va faoliyat turiga muvofiq holatda rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish tadbirlari to'g'risida"gi 2020yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-sonli Qarori

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori
4. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxona to'g'risida" gi 2023-yil 11dekabrdagi PQ-558-II-sonli Qonuni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida" gi Qarori
6. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A., Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. O'quv qo'llanma. T: "TURON NASHR" nashriyoti, 2021. -212 b.
7. Jo'rayev T., Iqtisodiyot nazariyasi. . Darslik..-T.: «Fan va texnologiya» nashr, 2018. – 512 bet.
8. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, -10 bet.
9. Горфинкель В.Я., Швандар В.А. Экономика предприятия. Учебное пособие. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008, – 718 стр.
10. Raxmonqulov J.M., Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalari va mamlakat innovatsion faoliyatini axborot texnologiyalri a sosida samarali rivojlantirish, "Iqtisod va moliya" jurnali, 2021, 6(142)
11. Qodirov S., Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning xususiyatlari, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2/2022, mart-aprel
12. Sotvoldiyev N.J., "Raqobat strategiyasi", O'quv-uslubiy majmua. T: Namangan, 2022
13. Ayupov R.H., Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020, 554 bet.
14. Porsaev G'.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik -T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b
15. Ayupov R.H., Boltaboeva G.R.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 575 bet.